

**ILK O'RTA ASRLARDA AFROSIYOB DEVORIY SURATLARNING
O'ZBEKISTON TARIXINI O'RGANISHDAGI AHAMIYATI**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy Ta'lim Vazirligi
Samarqand Davlat Universiteti Tarix fakulteti
Arxeologiya yo'nalishi 410-gruh talabasi
Raupova Malika*

Annatsiya: Mazkur maqolada Afrosiyob devoriy suratlari, antropologik qiyofalar tarifi, elchilik aloqalari, devoriy rassomlik san'ati, rassomning mahorati, mahalliy xalqlarning turmush tarzi va antropologik qiyofasi, savdo sotiq aloqalari, Sug'd yozuvi keng bayon etilgan.

Afrosiyobda arxeologik qazilmalar natijasida topilgan mahobatli rangtasvirning noyob namunalari. Dastlabki namunalari arxeolog V. Vyatkin tomonidan ochilgan (1913). Keyingi qazishlar davri (1965-68)da o'zbek arxeologlari 30 ga yaqin saroy xonasini ochishga muvaffaq bo'lganlar, bu xonalarning ko'plari devoriy rasmlar, naqshlar bilan bezatilgan.

Devoriy suratlarda diniy qarashlar etnik tasvirlar va antropologik ma'lumotlar beradi. Afrosiyob devoriy suratlari o'sha davr ijtimoiy va siyosiy savdo aloqalari haqida qimmatli ma'lumotlar jamlanmasi. Tasvirlarda xalqlarning hayot tarzi, hukumdorning yuksak darajada aks etilishi, ranglarning o'zara uyg'unligi bilan hayratlanarli. Devoriy suratda Sug'd yozuvining saqlanib qolingani kishini hayratga soladi.

Kalitso'zlar: Afrosiyob, Samarqand, devoriy surat, Varxuman saroyi, fil tasviri, savdogarlar, sug'd yozuvi, Chin yurti, elchilar, samoviy otlar, ayollar tasviri, zardushtiylik dini, otashparaslik dini, Koreya Silla Tan Hindiston elchilari, Sug'd yozuvi, Chog'aniyon elchisi.

Afrosiyob- Samarqand shahrida joylashgan qadimgi shahar xarobasi. Afrosiyob devoriy suratlari 1913-yilda arxeolog V. Vyatkin tomonidan ochiladi. Afrosiyob devoriy suratlari O'rta Osiyoga arablar istilosiga qadar mahobatli rang tasvir rivojlanganligini ko'rsatadi.

Samarqand yuksak darajada rivojlanganini va shahar markaz bo'lganligidan dalolat beradi. O'rta Osiyoga arablar istilosida (VII-VII asrlar) Islom dini kirib kelishi natijasida jonli narsalarni tashvirlash va ularni saqlash mumkin emas edi.

Arablar tomonidan Afrosiyob devoriy suratlari insonlar tasviriga xanjarlar bilan zarar yetkaziladi. Arablar 722-yilda Samarqandda qilingan harbiy hujumda Panjikentdagi Devashtich (706-722) saroyi devoriy suratlarga ziyon yetkaziladi.

Devoriy suratlarda ilk o'rta arlarda mahaliy xalq qanday kiyimlar kiyganligi, antropologik qiyofasi, xo'jalik mahsulotlar ham qisman tasvirlangan.¹

Devoriy suratda qo'shni xalqlar Hinston Eron Afg'oniston Xitoy va Koreya bilan o'zaro madaniy, siyosiy iqtisodiy aloqadan bo'lganligini ko'rsatmoqda. Oxirgi o'n yillarda Afrosiyobda o'zbek-fransuz qo'shma ekspeditsiyalar (akademik P. Bernar keyinchalik F. Grene va M. Isommiddinov) olib borildi. M. Rosmislavov yozgan maqolada „Qazishma dastlab o'ylangan reja asosida emas, balki tartibsiz olib borilgan“ deb aytib o'yadi. Qazish ishlari natijasida bita bino qoldig'i topiladi. Uyning poli har xil sirlangan g'ishtlar hozirgi zamon „parket“ pollariga o'xshab qurilgan. Afrosiyobda shahar qurulishi bundan 2500 yil ilgari boshlangan. 1220 yil Chingisxon boshliq tatar-mo'g'ullar Samarqandga hujum qilib shaharni vayron etadi. Natijada shahar xarobaga aylanib, judda ko'p aholi qirilib ketadi. Afrosiyob nomining kelib chiqishi haqida B.A. Shishkin yozishicha „XVII-XVIII asrlarda bu joyning nomi podshoh Afrosiyob nomi bilan bog'liq, qadimdagi bu yorlar uning mulkiga kirgan va uning nomi bilan atalgan“. Afrosiyob so'zi badiiy adabiyotlarda Abulqosim Firdavsiyning „Shohnoma“ asari orqali kirib kelgan. Afrosiyob mudofaa devorlarning davriy sanasi ham hayratlanarli. 1968-1970 yillarda arxeolog Galina Shishkina tomonidan devor qoldig'lari topiladi, devorning davriy sanasi topilgan materiallarga qarab 2500 yil etib belgilanadi. Afrosiyob mudofaa devorlar bilan o'ralgan. Afrosiyobda to'rta assosiy darvozaga ega bo'lgan. Afrosiyobni shimol tomondan Buxora darvozasi, sharq tarafdin Xitoy darvozasi, janubdan Kesh g'arbdan Navbahor darvozasi bilan o'ralgan.

Afrosiyobda VII asrga oid Samarqand hukumdori Varxuman saroyi Vyatkin tomonidan (1913 yil) topiladi. Saroy kompleksidan 30 ga yaqin zallar aniqlanadi. Mehmonxona yoki yig'inlar zali va uning yonida uzun kalidor kishini diqqatini o'ziga tortadi. Chunki bu yerda suratlarning ko'pligi va ularning yaxshi saqlanib qolinlanligi bilan ajralib turadi. Saroyning devorlari rangbarang devoriy suratlardan bezatolgan. Katta xona (11x11m), kichik xonasi (7x7m) saqlanib qolgan. Xonalarning birida erkak va ayol ark oldida o'tirgan holda tasvirlangan. Katta xona rasmlarning ko'pligi va sug'd yozuvining saqlanib qolingani bilan ahamiyatli. Xona rasmlarda to'y tasvirlari, hukumdor Varxumanning qo'shni mamlakat elchilarning qabul qilish jarayoni, elchilarning sovg'a salomlari, yo'ldagi sarguzashtlari, yirtqich hayvonlar tasviri, afsonaviy mahluqlar tasviri, baliq va fil tasvirlari uchraydi. Rassom hukumdor Varxumanni (butun devor balandligining, 5-6m) boshqa tasvirlarga qaraganda mahobatli tasvirlagan. Rassom devoriy suratlarni 3 qismga bo'ladi. 2 chetki qismda ensiz naqsh hoshiyalari saqlanib qolingan. Devoriy

1 Baumer, Christoph. *History of Central Asia, The: 4-volume set* (en). Bloomsbury Publishing, 18 April 2018 — 243 bet. ISBN 978-1-83860-868-2.

suratlarda ranglarning uyg'unligi ajablanarli. Movviy rangda fil va ustiga oq baxmal yopingan holda ustida taxtiravonda bir malika tasvirlangan va uni qoriqlab borayotgan suvoriylar tasvirlangan. Bir kanizak ayolning qo'lidagi tasvirlarda sug'd tilida „Malikaning yaqin kishisi “ degan yozuv saqlanib qolgan. Orqaroqda qilich taqqan ot yetaklagan kishining to'rtta tuyyaqushni yetaklab ketayotgan tasviri aks etgan. Tuyyaqushlar muqqaddas qushlar tasviridir. Biz ularning ogiz burunlarning yopilgan holda aks etishi qadimgi diniy qarashlar bog'liq deb hisoblaymiz. Qadimda aynan otashparastlik dinida kohinlar muqqaddas olov oldida og'izlarini yopib yurganlar. Devoriy suratlarda nafaqat diniy qarashlar balki, hukumdor Varxumanning o'z davrining yetuk hukumdori bo'lganligini uning elchillar tomonidan unga keltirilayotgan sovg'a-salomlardan ham bilsak bo'ladi. Suratlarda o'sha davrdagi hayvonlar, qushlar, baliq tasviri, otlar va fil tasviri tushurilgan. Fil tasvirining aks etishi bir savol uyg'otadi. Fil O'rta Osiyo hududida VII asrlarda mavjud bo'lganmi yoki Hindiston elchilari fil orqali kelganligi haqida ikki xil qarashlar mavjud. Devoriy suratda yozuvning saqlanib qolingani ajablanarli. G'arbiy devordagi bir odamning etagiga qora siyohda 16 qatordan iborat bo'lgan qadimgi sug'd yozuvi saqlanib qolingan. Bugungi kunda sug'd yozuvlari bilan A. Begmatov keng izlanishlar olib bormoqda. B.A. Livshis tomonidan sug'd yozuvi tarjima qilinadi. Unda shunday bayon qilingan; „Men Chog'anyon elchisi Turantoshning elchisi Bur-zotak bo'laman Men unig tarafidan Sug'dga keldim va Samarqand hukumdori qarshisida turibman. Samarqand hukumdori mening haqimda shubhalanmasin va men Samarqand mabudlarni yaxshi bilaman hukumdorni hurmatlayman. Endi Choch elchisi so'zga og'iz ochdi” aynan shu yerda yozuv yakuniga yetadi. Devoriy suratlarni insonlarning antropologik qiyofasi mongaloid tipiga kiradi. Devoriy surat qadimda sug'd xalqlarning hayot shaklini ham ko'rsatib beradi. Sug'diyoda qo'shni xalqlari Choch, Chog'anyon, Tan davlati, Koguryo va Silla qirolliklari bilan chegaradosh bo'lgan. Choch hozirgi Toshkent Chog'aniyoz esa Surxandaryoga to'g'ri keladi. Turklar uzun sochli sifat qilib tasvirlardan. Balki, sochning uzun bo'lishi uning mavqeyini ko'rsatib turgan bo'lishi ham mumkin. Koreyadan kelgan elchilarning bosh kiyimlarida ikki shoxli bosh kiyim kiyganlar. Bu bosh kiyimlarning o'rta asr Koreya tarixida amaldorlarning bosh kiyimlarida ham ko'rishimiz mumkin. Devoriy suratlardagi suv va baliq tasviri diniy qarash bilan bog'liq. Bollarning suvda suzishi bu gunohlardan boklanish holida tasvirlangan bo'lishi ham mumkin. Zardushtilik dinida o'liklar va tiriklar o'rtasidagi darvo suvlari tushunchasini eslatadi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, Afrosiyob devoriy suratlari VII asrda Samarqand hududida mavjud bo'lgan Sug'diyona davlati rivojlanganligini va ijtimoiy va siyosiy hayoti haqida ma'lumot bera oladi. Ilk o'rta asrlarda rang tasvir san'atining yorqin namunasini hisoblanadi. Qadimdagi Xitoy Hindiston O'rta Osiyo xalqlarining o'zaro elchilik aloqalar olib borganligi haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Sug'd yozuvidagi

ma'lumotlar Samarqandning yuksak darajada rivojlanganligini ko'rsatadi . Afrosiyob devoriy suratlari arablar bosqini vaqtida jiddiy zarar ko'radi. Bu bevosita diniy qarashlar bilan bo'liq hisoblanadi. Hozirgi kunda Afrosiyob devoriy suratlari saqlanishi bo'yicha Samarqand Arxeologiya instituti va Madaniy meros obyektlarni asrash qo'mitasi tomonidan restavratsiya va konservatsiya ishlari olib borilmoqda.

Adabiyotlar

1. Sh.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent "O'zbekiston" nashriyoti-2017.
2. A.S.Sagdullayev. O'zbekiston tarixi(darslik). I kitob. Toshkent. "VNESHINVESTPROM" -2003.
3. Альбаум.Л.И. "Афрасиаб" Ташкент-1969.
4. Д. Султонова. "Moziydan sado" журнали. Toshkent. "O'zbekiston" nashriyoti-2003. 3-сон.
5. Д. Суюнова. "Moziydan sado" журнали. Toshkent. "O'zbekiston" nashriyoti-2012. 2-сон
6. www.ziyonet.uz